

GERMENEVTIKADA TUSHUNISH VA TUSHUNTIRISH

Annotatsiya. Maqolada hermenevtika insonga tushunish va tushuntirish imkonini berish bilan borliqning muhim asosini tashkil qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: atama, talaffuz, mazmun, tushuntirish, tushunish, borliq, mazmun, ma'no, talqin qilish.

ПОНИМАНИЕ И ОБЪЯСНЕНИЕ В ГЕРМЕНЕВТИКЕ

Аннотация. В статье представлена информация о том, что герменевтика является важной основой существования, позволяющей человеку понять и объяснить. Понимающая и объяснительная способность герменевтики важна не только при изучении истории, но и в понимании современных событий.

Ключевые слова: термин, произношение, содержание, объяснение, понимание, существование, содержание, значение, интерпретация.

UNDERSTANDING AND EXPLANATION IN HERMENEUTICS

Annotation. The article provides information about how hermeneutics is an important basis of existence, allowing a person to understand and explain. The understanding and explanatory ability of hermeneutics is important not only in the study of history, but also in the understanding of contemporary events.

Key words: term, pronunciation, content, explanation, understanding, existence, content, meaning, interpretation.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning tanqidiy fikrlash, muloqotda erkin qatnashish, matnlarni chuqur tahlil qilish, ularni kontekstda talqin qilish ko'nikmalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda shakllantirilmoqda. Biroq mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalarda matnni yoki ma'lumotni sathiy darajada anglash ustun bo'lib, uning chuqur ma'no qatlamlariga kirib borish, semantik va kontekstual bog'liqliklarni izchil tahlil qilish, ya'ni haqiqiy nutqiy idrok qilish darajasi hali yetarli emas. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, xususan, hermenevtik yondashuvga tayangan holda o'qitish metodikasini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Hermenevtika - yunoncha "hermeneukos" so'zidan olingan bo'lib, tushuntiruvchi, talqin etuvchi ma'nosini bildiradi. Atama qadimgi yunon afsonalariga borib taqaladi. Rivoyatlarga ko'ra, Olimp tog'idagi - ma'budlarning amr-farmon va xabarlarini Hermes odamlarga olib kelib, tushuntirib, talqin qilib berganmish. Vositachi - Hermes va hermenevtika orasida talaffuzda ham, vazifadoshlikda ham o'xshashlik bor. Ya'ni, Hermesning ma'no va mazmunni tashuvchilik, yetkazib beruvchilik vazifasi hermenevtikaning matn ma'nosini tushunish va tushuntirish san'ati ekanligi bilan bir xil. Ayrim manbalarda hermenevtika sharhlash va tushuntirish san'ati, ko'p ma'noli belgi, ishoralarni, hamda Gomer va qadimgi mutafakkirlar asarlarini talqin qilish ta'limoti sifatida ta'riflanadi. Keyinchalik, hermenevtik an'ana diniy ilm ahliga muqaddas ("Tavrot", "Zabur", "Injil" va "Qur'on") kitoblarni sharhlash va tushuntirishda qadimiy yodgorliklarni tarjima qilishning haqiqiy san'ati (uslub) sifatida xizmat qila boshlagan.

Falsafa tarixi ensiklopediyasida "Hermenevtika" – keng ma'noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta'limot, tor ma'noda, filologiya, huquqshunoslik, ilohiyotshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o'rganishda qo'llaniladigan metod va qoidalar to'plami, deb ta'kidlangan. Lekin hermenevtikaning qamrovi yuqoridagi

ta'rifdan keng. Germenevtika shunchaki metod va qoidalar to'plami emas, balki inson borlig'ining alohida ontologik ahamiyatga ega bo'lgan fenomenidir. Chunki germenevtika insonga tushunish va tushuntirish imkonini berish bilan borliqning (bor bo'lish, mavjudlikning) muhim asosini tashkil qiladi. Ma'noni tushunish va talqin qilish esa hayot mazmunining tayanch bo'g'inidir.

Inson tabiatan tushunish va tushuntirishga intiladi. Shu ma'noda inson borlig'i immanent tarzda germenevtikdir. Germenevtika bu - tushunish va tushuntirish san'ati. Bu shunday san'atki, u insonning yashash an'anasi, hayotiy qadriyat va ideallari, dunyoqarashida aks etadi. Inson o'zi tushunganicha borliqda yashaydi va o'z imkoniyatiga ko'ra borliqni tushuntiradi.

Germenevtik tushunish ijtimoiy tushunishdan farq qilib, matnga nisbatan muallifning dastlabki maqsadini tushunishga e'tibor qaratadi. Tushunish bu - bir ong orqali ikkinchi ongga tashqi xatti – harakatlar (imo, nutq) orqali yetkazilayotgan belgilarni qabul qilish san'ati.

Germenevtikada tushunish va tushuntirish bilan bir qatorda interpretatsiya – talqin qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Talqin (interpretatsiya) (lotincha interpretatio – tushuntirish, izohlab berish) – tushuncha yoki elementlar mohiyatini ularning predmetli shakli, bezaklari vositasida bilishga qaratilgan kognitiv jarayon. Talqin muammosi gnoseologiya, fan metodologiyasi, mantiq, til falsafasi, semiotika va boshqa fanlarning fundamental muammolaridan biri bo'lib, falsafiy germenevtikada alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda gumanitar fanlar bilan bir qatorda tabiatshunoslik fanlarida ham talqin ilmiy nazariyaning ontologik voqelik bilan muvofiqligini tekshiruvchi moddiy verifikatsiya sifatida qo'llaniladi. Nazariya va voqelik har doim ham bir tilda izohlanmaydi, bitta hodisa uchun bir nechta nazariyalar mavjud bo'lishi mumkin. Talqin ilmiy nazariyani tatbiq qilish sohasiga ko'ra qiyoslash imkonini yaratadi.

Talqin jarayonida eng murakkab holatlardan biri – germenevtik doiradir. Germenevtik doira shunday tartibdaki, butunni uning qismlarini tushunmay talqin qilib bo'lmaydi. Qismlarni bilish ham butunni anglashdan kelib chiqadi. Falsafiy kategoriya hisoblangan bu holat, ya'ni butun va qismning o'zaro bir-biriga uzviy bog'liqligi germenevtik doiraning asosiy xususiyatidir.

Germenevtik doira tamoyili germenevtikani tushunishning umumiy nazariyasi darajasiga yetishi bilan bog'liq uzoq tarixiy taraqqiyotga ega. Germenevtik doira masalasiga mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning deyarli barchasi to'xtalib o'tgan. Uning dastlabki g'oyalari antik davrda Platon ijodida o'z aksini topgan. Keyinchalik u Hegel falsafasida tartibga solindi. Biroq, uning metodologik ahamiyati faqat XIX asr o'rtalariga kelibgina e'tirof etilgan. Germenevtik doira F.Shleyermaxer ijodida keng o'rganilgan, unda faylasuf mazkur tushunchani lingvistik tahlil uslubi emas, balki umumiy tushunish nazariyasi sifatida tahlil qilgan. Muallifning til boyligi va tarixiy davr matnda yaxlit beriladi. Bunga asoslangan holda muallif ijodi alohida tushunilishi lozim. Har qanday aniq bilim umumiylik ichida tushuniladi, avval umumiylik haqidagi tasavvur, undan so'ng dastlabki o'rganilgan qism tushunilib natijada yana umumiylik haqidagi bilimga qo'shiladi. Va, har qanday ilmiy bilim butun va qism tushunilishining integrativligi asosida qo'lga kiritiladi. Shleyermaxerning ushbu fikrini quyidagicha tavsiflash mumkin, butun va qism dialektikasi ikki jihatda amalga oshadi. Birinchi darajada qism asarning bo'lagi sifatida, asar esa butun sifatida olinadi. Ikkinchi darajada muallif ichki va tashqi hayoti butun sifatida, asar esa qism sifatida olinib, ularning yaxlitlikdagi o'zaro faoliyati xususiyatlari ochiladi. Asarni tushunish tilli muloqot sifatida qism butun orqali, butun qism orqali amalga oshadi. Butun va qismning ketma-ketlikdagi tushunilishi har safar bir xil ma'no bermaydi, chunki qismlar har xil ma'noga ega bo'lishi, yoki o'zidan oldingi qismning ma'nosini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun ham asar o'qilgani sari butun va qism dialektikasi almashib boradi, oxirida tugal xulosa bilan yakunlanadi va bunda qismlar almashinuvi mazmuni ketma-ketlikning asosi bo'lib xizmat qiladi. Qismlarning ketma-ketligi butun haqidagi mazmunga qaytib unga aniqlik kiritadi, o'zidan oldingi manbaga yangi mazmun beradi. Shleyermaxer bu harakatni — xayoliy doira deb ataydi. Chunki, voqelikda hech qanday doira yo'q, faqat yozuv va o'qish dialektikasi bor, aniqrog'i butunni uning qismlari ketma-ketligida o'qish bor xolos. Bu doiraga — kirish oson, lekin — chiqish ancha qiyin. Buning uchun matn ma'nosini to'liq uqish va tushunishga erishish lozim. Asarni tushunish oldindan aniq bo'lgan ma'lumotlar tahlilini

tushunishga bogʻliq, bunda muallif hayotining ichki va tashqi xususiyatlari hamda ularning asar mazmuniga taʼsiri, muallif olamining tarkibi va individual uslubi, shuningdek, tadqiq qilayotgan shaxsning matn muallifi oʻrtasidagi ijodiy potensial nuqtai nazarlardagi oʻxshashlik kabilar muhim ahamiyatga ega. Butun va qismning oʻzaro nisbati hermenevtik doiraning oʻziga xos xususiyatidir. Badiiy asar talqini esa, asar maʼnosi gʻoyasining yaxlit yoʻnalishini topishga qaratilgan. Biroq, oʻquvchi asarni oʻqiyotganida uning biror aniq lavhasi bilan muloqotda boʻladi. Bu lavhalarning maʼnosini anglab borish butun – yaxlit asarni tushunishning, yuqori darajada talqin etishdir.

Hermenevtikaning tushunuvchi va tushuntiruvchi imkoniyati nafaqat tarixni oʻrganish, balki hozirgi zamon voqea hodisalarini anglashda ham muhim oʻringa ega. Tez surʼatda yangilanib borayotgan fan-texnika imkoniyatlari, tobora global, integral tus olayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy jarayonlarni idrok qilish, ularni tushunib, mulohaza yurita olishdir.

Hermenevtika shaxsning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, unga bilimni oʻziga xos tarzda talqin qilish imkonini beradi, oʻqituvchining aytganlarini soʻzsiz qabul qilishdan koʻra, unga savol berish, tahlil qilish, shubha qilish, yangicha yondashuvni shakllantirishga undaydi. Ayniqsa, bugungi informatsion jamiyat sharoitida har bir matnni, xabarni, axborotni ongli anglash, uni tanqidiy fikrlash asosida tushunish zarurati ortib bormoqda. Bu esa hermenevtik yondashuvni nafaqat dolzarb, balki zarur taʼlim metodikasiga aylantirmoqda. Bundan tashqari, hermenevtik yondashuv pedagogik psixologiyada ham katta ahamiyatga ega. Oʻquvchi yoki talabani anglash, uning ichki dunyosi, motivatsiyasi, shaxsiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va psixologik holatini hisobga olgan holda oʻqitish samaradorligini oshiradi. Bu uslubda dars jarayoni koʻproq muloqotga asoslanadi — oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasida bir yoqlama emas, balki oʻzaro anglashuv va fikr almashinuvi orqali bilim hosil qilinadi. Natijada bilimlar sunʼiy ravishda yodlash emas, balki shaxsiy anglash va ichki talqin asosida oʻzlashtiriladi. Hermenevtik taʼlimot oʻzining boy tarixiy ildizlari, keng qoʻllanilishi va zamonaviy taʼlimdagi ahamiyati bilan pedagogik-psixologik tadqiqotlarning dolzarb yoʻnalishiga aylangan. U oʻquvchi va talabani shaxsiy individualligini hisobga olgan holda, bilim olish va uni anglash jarayonini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ushbu taʼlimot nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy-pedagogik nuqtai nazardan ham nihoyatda muhim va dolzarb sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoshimova N. "Hermenevtik yondashuvning lingvistik asoslari". – Samarqand, 2021. – B. 91–96.
2. Krotkov D. "Hermenevtik metodlar va taʼlim". – Moskva, 2017. – B. 100–105.
3. Toʻxtasinov A. "Talabani anglash qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar". – Fargʻona, 2023. – B. 62–68.
4. Qosimova D. Hermenevtika va til oʻqitish metodikasi: nazariy va amaliy asoslar. – T.: TDPU, 2020. – 198 b.
5. Allayarova S. Badiiy ijod hermenevtikasi –T.:Universitet, 2011. 29.
6. Allayarova S.N. Falsafiy hermenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. diss.– T.: Universitet, 2010.